



XALQ DEPUTATLARI CHINOZ TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-23-104-10-144-K/25 Chinoz tumani

Chinoz tumanining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” O‘RQ-1105-sonli qonuni, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrda VII-26-162-10-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq, Toshkent Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 3-dekabrda 04/984-sonli hamda Chinoz tumani hokimining 2025-yil 29-dekabrda 3/25-121-sonli taqdimnomasi hamda Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2025-yil 29-dekabrda 03-01-DKB/27-sonli majlisi bayoni, DKQ 03-01/27-25-sonli qarori va xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Toshkent viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrda VII-26-162-10-0-K/25-sonli qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Chinoz tumani mahalliy byudjetining 2026-yilgi daromadlari 113 mlrd 184 mln 640 ming so‘m va xarajatlari esa 113 mlrd 184 mln 640 ming so‘mga ma‘lumot uchun qabul qilinganligi shuningdek, Chinoz tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet

mablag'larining yo'1 qo'yiladigan eng kam miqdori 502 mln 776 ming so'm etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq, shuningdek, Chinoz tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 2026-yil uchun 1 mlrd 545 mln 913 ming.so'm miqdorida belgilansin. Bunda, zaxira jamg'armasi mablag'larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi ta'minlansin.

5. Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida:

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llagan holda yer solig'i stavkalari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 m² uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsientlarga muvofiq tasdiqlansin.

-yuridik shaxslar bo'yicha mol-mulk soliqlari uchun qo'llaniladigan mutloq miqdorlari 5-ilovaga muvofiq;

-jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha o'rnatilgan soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 6-ilovaga muvofiq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori 7-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 8-ilovaga muvofiq;

Qishloq xo'jaligi mo'ljallangan yerlar bo'yicha tuman va shaharlar kesimida yerlari stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar miqdori 9-ilovaga muvofiq;

Chinoz tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori 10-ilova muvofiq;

Chinoz tumani mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlarda quyidagicha tasdiqlansin:

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar miqdori 11-ilovaga muvofiq.

6. Chinoz tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – tuman moliya va iqtisodiyot bo'limi boshlig'i M.Miyakubov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi (O'.Qodirov), tuman Soliq inspeksiyasi (T.Axmedov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin:

- byudjetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to'g'ri shakllantirilishi va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlasin.

-. 2026-yil uchun ajratilayotgan byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

-.tuman Soliq inspeksiyasi (T.Axmedov) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

7. Majburiy ijro byurosi Chinoz tuman bo'limi (S.Uralov), tuman Soliq inspeksiyasi (T.Axmedov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko'rish vazifasi yuklatilsin.

8. "Chinoz hayoti" gazetasi bosh muharriri A.Fayzullayev, tuman hokimligi axborot xizmati rahbari A.Mavlonovlarga mazkur qarorni "Chinoz hayoti" gazetasida va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash Chinoz tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – tuman moliya va iqtisodiyot bo'limi boshlig'i M.Miryakubov zimmasiga, qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi A.Turdiboyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



**SALIXOV
SHERZOD
ABDUXAKIMOVICH**

Xalq deputatlari Chinoz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
1-ilova

**Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy
prognoz ko'rsatkichlari**

		<i>ming.so'mda</i>
T/r	Daromad turlari	Chinoz tumani
	JAMI	113 184 640,0
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	5 505 000,0
2	Foyda solig'i	270 750,0
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 794 000,0
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	12 509 220,0
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 524 000,0
6	Aksiz solig'i jami	13 982 000,0
	<i>alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)</i>	0
	<i>pivo</i>	0
6	<i>benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i</i>	13 982 000,0
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	7 700 000,0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	8 171 000,0
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	23 739 000,0
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	18 516 000,0
11	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	836 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 775 200,0
	shundan: Qishloq xo'jaligi korxonalarini bo'yicha suv solig'i	3 227 000,0
	Qishloq xo'jaligi korxonalarini suv solig'ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-1 290 800,0
13	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar va davlat korxonalarini foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	2 566 550,0
15	Yig'imlar	692 730,0
16	Jarimalar	8 540 190,0
17	Davlat mulki bo'yicha ijaraga to'lovlari	63 000,0

Xalq deputatlari Chinoz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Tuman mahalliy byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

T/r	Hududiy byudjet mablag'lari taqsimlovchilar nomi	Chinoz tumani
	Xarajatlar miqdori, jami	113 184 640,0
1	Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limi	29 165 686,0
	shundan:	
	<i>"Mening maktabim"</i>	2 842 800,0
2	Madaniyat uylari	8 751 108,0
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo'limi (yoshlar yetakchilari)	4 153 851,0
4	Bolalar va o'smirlar sport maktabi	6 429 789,0
5	Tuman fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	377 500,0
6	Tuman veterinariya va laboratoriya bo'limi	2 253 918,0
7	Tuman suv yetkazib berish xizmati davlat muassasi	2 797 697,0
8	Tuman hokimligi	41 521 883,0
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo'limlarini saqlash xarajatlari	2 294 342,0
	<i>Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi</i>	1 266 632,0
	<i>Madaniyat bo'limi (apparat)</i>	108 480,0
	<i>Yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi (apparat)</i>	137 806,0
	<i>Tuman investitsialar, sanoat –savdo bo'limi</i>	69 753,0
	<i>Tuman qurulish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi</i>	240 160,0
	Qishloq xo'jaligi bo'limi	413 516,0
	<i>Oila va xotin-qizlar bo'limi</i>	141 558,0
	<i>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi</i>	20 713 141,0

	<i>"Mahalla byudjeti" jamg'armasi mablag'lari</i>	1 778 584,0
	<i>Zahira jamg'armasi</i>	1 545 913,0
9	tuman hokimligi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	794 500,0
	<i>shundan:</i>	
	<i>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari</i>	0
	<i>Axborot-kutubxona markazlari</i>	794 500,0
10	Tuman hokimligi (Obodonlashtirish boshqarmasi)	16 938 708,0

ming.so'mda

Xalq deputatlari Chinoz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Chinoz tumani mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me'yorlari

foizda

T/r	Umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlar	byudjet	Yirik va hududiy soliq to'lovchilar	Ajratma me'yori
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	15%
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	19%
3	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan	Tuman byudjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
4	Foyda solig'i	Tuman byudjetiga	MRI	0%
			DSB	3%
5	Alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	Tuman budjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
	pivo	Tuman budjetiga	MRI	0%
			DSB	0%
benzin, dizel yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizasiya qilishda to'lanadigan aksiz solig'i	Tuman budjetiga	MRI	0%	
		DSB	100%	
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Tuman budjetiga	MRI	0%
			DSB	100%
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Tuman budjetiga	MRI	0%
			DSB	100%
8	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman budjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Tuman budjetiga	MRI	100%
			DSB	100%
10	Aylanmadan soliq	Tuman budjetiga		100%
11	Davlat boji	Tuman budjetiga		35%

12	Jarima	Tuman budjetiga	31%
13	Yig'imlar	Tuman budjetiga	43%

Xalq deputatlari Chinoz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan erlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda yer solig'i stavkalari

T/r	Tuman va MFYlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo'yicha, 1 kv.m. uchun	
		Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda)	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (so'mda)
	Chinoz tumani	1,05	45 726 000	1.15	450,4
1	Alisher Navoiy MFY	1,30	59 443 800	1,20	540,48
2	Amir Temur MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80
3	Afg'on MFY	1,30	59 443 800	1,20	540,48
4	Axillik MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80
5	Beshkapa MFY	1,30	59 443 800	1,20	540,48
6	Birlik MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80
7	G'ayrat MFY	0,90	41 153 400	0,70	315,28
8	Gulzorobod MFY	1,00	45 726 000	1,00	450,40
9	Dexqonobod MFY	0,90	41 153 400	0,80	360,32
10	Do'stlik MFY	0,90	41 153 400	0,80	360,32
11	Yollama MFY	1,00	45 726 000	1,00	450,40
12	Islomobod MFY	1,00	45 726 000	0,80	360,32
13	Istiqlol MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80

14	Yo'ltushgan MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
15	Kanalobod MFY	0,90	41 153 400	0,70	315,28
16	Kattatepalik MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
17	Ko'tarma MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
18	Madaniyat MFY	0,94	42 982 440	0,75	337,80
19	Markaziy MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
20	Mevazor MFY	1,00	45 726 000	0,80	360,32
21	Navro'z MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80
22	Nafis MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
23	Oydin MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
24	Paxtaobod MFY	1,20	54 871 200	1,20	540,48
25	Rasulobod MFY	1,00	45 726 000	0,80	360,32
26	Samarqand MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80
27	Sarbozor MFY	1,30	59 443 800	1,20	540,48
28	Soxibkor MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
29	Sutbuloq MFY	0,94	42 982 440	0,75	337,80
30	Sutchilar MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
31	Tillaobod MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80
32	Tillatopgan MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
33	Tong yulduzi MFY	0,90	41 153 400	0,70	315,28
34	Xamza MFY	1,30	59 443 800	1,20	540,48
35	Xo'ja MFY	1,30	59 443 800	1,20	540,48
36	Chin-maschit MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
37	Chorvador MFY	1,00	45 726 000	0,70	315,28
38	Extirom MFY	1,00	45 726 000	0,95	427,88
39	Eshonobod MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80
40	Yaxshi niyat MFY	0,90	41 153 400	0,75	337,80

Xalq deputatlari Chinoz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
5-ilova

**Yuridik shaxslar bo'yicha mol-mulk soliqlari uchun qo'llaniladigan
mutloq miqdorlari**

T/r	Tuman (shahar) nomi	koeffisient	Mutloq miqdor (so'mda)
1	Chinoz tumani	1.00	1,300,000.00

Xalq deputatlari Chinoz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
6-ilova

**Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i bo'yicha o'rnatilgan soliq
stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha bo'lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi
koeffitsiyentlar**

T/r	Soliq solish ob'ektlari	Soliq stavkalari, foizlarda	koeffitsiyent
1.	Uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari (umumiy maydoni 200 kv.m gacha bo'lganlarini qo'shib hisoblaganda), ko'p kvartirali uylarga uzviy bog'liq bo'lgan avtomashina turar joylari, shuningdek boshqa imoratlar, binolar va inshootlar	0,34	1,10
2.	200 kv.m dan ortiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	0,45	1,10
	500 kv.m dan ortiq bo'lgan	0,6	1,10
3.	Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan ortiq bo'lgan uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari	0,45	1,10
4.	Tadbirkorlik faoliyati uchun yoxud yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishda foydalaniladigan soliq solish ob'ektlari, shuningdek tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromadlar olish uchun mo'ljallangan, yashash uchun mo'ljallanmagan ko'chmas mulk ob'ektlari	1,5	1,00

Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
7-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo'llaniladigan koeffitsiyentlar miqdori

(Qishloq xo'jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to'lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman (shahar) nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar		Sanoat korxonalarini		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		yer usti	yer osti	yer usti	yer osti	yer usti	yer osti	yer usti	yer osti
1	Chinoz tumani	1.15	1.17	1.20	1.20	1.15	1.17	1.20	1.20

Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrda
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
8-ilova

**Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga qo'llaniladigan
1,3 barobargacha oshiruvchi koeffisientlar miqdori**

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (<i>sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari</i>), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va anhidrid, ganch	G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag'al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	Chinoz tumani	1,25	1,25	1,25	1,25	1,25	1,30	1,30

Xalq deputatlari Chinoz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
9-ilova

**Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar bo'yicha tuman va shaharlar kesimida yerlari
stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsiyentlar**

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsiyent	Stavkasi (foizda)
1	Chinoz tumani	1,00	1,00

Xalq deputatlari Chinoz tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
10-ilova

**Chinoz tumani mahalliy byudjetining shaxsiy g'azna hisobvarag'ida
turgan byudjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori**

ming so'mda,

No	Hudud nomi	2026-yil
1	Chinoz tumani	502 776.0

Xalq deputatlari Chinoz tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-23-104-10-144-K/25 -son qaroriga
11-ilova

**Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga
qo'llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyentlar**

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan daromad solig'i					
		Turar joylar uchun			Noturar joylar uchun		
		2026-yil minimal qiymat	koeffitsient	2026-yil stavka	2026 - yil minimal qiymat	koeffitsient	2026-yil stavka
1	Chinoz tumani	5,90	1,10	6,49	11,80	1,10	12,98